

## DAVLATNING TINCHLIKNI TA'MINLASH SOHASIDAGI FUNKSIYASI

Kenjayeva Muxarramxon Do'ltaboy qizi

“Davlat-huquqiy faoliyat” yo‘nalishi

1-bosqich 30-guruh o‘quvchisi

### Annotatsiya:

Ushbu maqolada muallif davlat funksiyalari tushunchasi, davlatning tinchlikni ta'minlash sohasidagi, ayniqsa millatlararo totuvlikni ta'minlash borasidagi funksiyalarning mazmun-mohiyati, olimlarning fikr-mulohazalari, konstitutsiyamizda ushbu masalalarni aks ettiruvchi normalar xususida fikr yuritgan.

**Kalit soʻzlar:** davlat funksiyasi, muqaddima, millatlararo totuvlik, ustuvor yoʻnalish, millatlararo bagʻrikenglik, milliy-tarixiy xususiyatlar.

### Аннотация:

В данной статье автор рассмотрел понятие функции государства, содержание функций государства в сфере обеспечения мира, особенно в области обеспечения межнационального согласия, мнения ученых, нормы, отражающие эти вопросы в нашей конституции.

**Ключевые понятия:** государственная функция, преамбула, межнациональная гармония, приоритетность, межнациональная толерантность, национально-исторические особенности.

### Abstract:

In this article, the author examined the concept of the function of the state, the content of the functions of the state in the field of ensuring peace, especially in the field of ensuring interethnic harmony, the opinions of scientists, the norms reflecting these issues in our constitution.

**Key concepts:** state function, preamble, interethnic harmony, priority, interethnic tolerance, national and historical features.

Davlat funksiyalari borasida gap ketganda uning maqsadi va vazifalariga ham alohida toʻxtalib oʻtish zarur deb oʻylaymiz. Zotan davlat funksiyalari davlat maqsadi va vazifalari bilan uzviy bogʻliq boʻlib, davlatning oʻz oldiga qoʻygan



maqsadlariga erishishi uchun muayyan bir vazifalarni hal qilishi lozim, bu esa o‘z navbatida tegishli funksiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq jarayon hisoblanadi. Davlatchilik tarixidan ma‘lumki, davlat va jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida ular oldiga ma‘lum bir vazifalarning qo‘yilishi tegishli funksiyalarni amalga oshirish zaruratini keltirib chiqaradi, vaholanki davlatning funksiyalari amalga oshirilmasa, uning vazifalari ham amalga oshirilmay qoladi. Huquqshunos olim M.Najimovning fikrlariga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, “Vazifa va funksiyalarning o‘zaro nisbatida funksiyalar emas, balki vazifalar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Davlatning funksiyalari bu uning vazifalari emas, garchi ular bu vazifalar bilan bog‘langan va hatto ularga bevosita bog‘liq bo‘lsa ham, vazifalar davlatning va davlat funksiyalarining rivojlanishi uchun bosh asos hisoblanmaydi, chunki ularning o‘zlari jamiyatning iqtisodiy va siyosiy ehtiyojlaridan kelib chiqadi, uning rivojlanish qonuniyatlari bilan belgilanadi va har bir davlatning milliy-tarixiy va boshqa xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi”.<sup>1</sup>

Davlatning ichki funksiyalaridan biri tinchlikni ta‘minlash funksiyasi bo‘lib, mazkur funksiya davlat tomonidan aholining tinch-totuv yashashi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berish, turli millatlarni va ijtimoiy guruhlarni murosai madorada saqlab turish, ularning orasida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan nizolarning oldini olish hamda bartaraf etishdan iborat.

Millatlararo totuvlik O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bugungi kunda mamlakatimizda yashayotgan barcha millat vakillarining teng huquqliligi, o‘z ona tilida ta‘lim olishi, o‘z imkoniyatlarini yuzaga chiqarishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan.

Tariximizga nazar tashlasak, mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki kunlaridan mana shunday millatlararo munosabatlar keskinlashgan tahlikali bir davrda millatlararo munosabatlar davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, millatlararo totuvlikni mustahkamlashga, yosh avlodni millatlararo bag‘rikenglik, baynalmilalchilik ruhida tarbiyalashga katta e‘tibor berildi.<sup>2</sup>

Asosiy Qonunimiz bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasi qismida ham Konstitutsiyaning qabul qilinishi “...fuqarolarning munosib hayot kechirishini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni, ko‘p millatli jonajon O‘zbekistonimizning farovonligini va gullab-yashnashini ta‘minlashni

<sup>1</sup> Najimov M., Saydullayev Sh. Davlat funksiyalari: O‘quv qo‘llanma –T.:TDYUI, 2004. 10-b.

<sup>2</sup> N. Seytimbetova. Millatlararo totuvlik – barqarorlik va taraqqiyot omili. O‘TMISHGA NAZAR / VZGLYAD V PROSHLOE / LOOK TO THE PAST №SI-2 (2021) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2021-SI-2>. 7-bet.



maqsad qilgan holda”<sup>3</sup> amalga oshirilganligi, ishlab chiqilganligining yorqin namunasi ekanligini ifodalaydi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 71-moddasida muhim norma sifatida belgilangan, ya’ni “...milliy, irqiy hamda diniy adovatni targ‘ib qiluvchi, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga, aholining sog‘lig‘iga, ijtimoiy axloqqa tajovuz qiluvchi siyosiy partiyalarning, boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarining, shuningdek milliy va diniy belgilariga ko‘ra siyosiy partiyalarning, harbiylashtirilgan birlashmalarning tashkil etilishi va faoliyati taqiqlan”<sup>1</sup>ishi ham aynan mamlakatda millatlararo totuvlikni, tinchlikni ta’minlashga qaratilgan norma sifatida e’tirof etilishi mumkin.

Mamlakatimizda millatlararo munosabatlarning huquqiy asoslari yaratilgan bo‘lib, yurtimizdagi tinch-osuda hayot, siyosiy barqarorlik va millatlararo totuvlikning garovi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev boshchiligida millatlararo munosabatlar sohasida keng miqyosdagi islohotlar olib borilmoqda.

Bunda ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 15-noyabrda “Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonining qabul qilinishi millatlararo munosabatlar sohasida amalga oshirilayotgan ishlarni yangi sifat bosqichga ko‘tardi deyish o‘rinli bo‘lar edi.

Ushbu Farmonning qabul qilinishi bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni tizimlashtirishga, holatni monitoring qilish mexanizmlarini ishlab chiqishda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Yurtboshimizning parlamentga qilgan 2019 yilgi Murojaatnomasida Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi tomonidan 30 iyul – Xalqaro do‘stlik kuni munosabati bilan “Do‘stlik” haftaligini tashkil etish hamda ushbu haftalik doirasida “Do‘stlik” xalqaro forum-festivalini o‘tkazish haqida kiritgan taklifi ilgari surildi. Bu yil esa, ushbu sanani O‘zbekistonda “Xalqlar do‘stligi kuni” deb belgilash taklifi, ilgari surilgan tashabbuslarning mantiqiy davomi bo‘ldi.<sup>4</sup>

2021 yil 5 fevral kuni esa O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o‘n ikkinchi yalpi majlisida “Xalqlar do‘stligi kunini belgilash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni tasdiqlandi.

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2023 y.

<sup>4</sup> <https://interkomitet.uz/bosh-sahifa-kir/zbekistonda-hal-lar-d-stligi-kuni-belgilandi/?lang=oz>.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmonida ham jamiyatda millatlararo totuvlik muhitini mustahkamlash va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini rivojlantirish borasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar, jumladan millatlararo munosabatlar sohasida ilmiy-ommabop maqolalar sonini 3 baravarga oshirish, do‘stlik jamiyatlari sonini 60 taga yetkazish hamda birodarlashgan shaharlar sonini 2 baravarga oshirish<sup>1</sup> bilan bog‘liq vazifalar belgilab olindi.

Hozirgi globallashgan dunyoda millatlararo munosabatlar mustaqillikning dastlabki kunlaridan davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi va huquqiy asoslar yaratildi. Millatlararo totuvlik jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ahamiyatli faktori bo‘lib, mamlakatimizda millatidan qat’i nazar barcha fuqarolarning manfaatlarini qonuniy asosda kafillangan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2023 y.
2. Najimov M., Saydullayev Sh. Davlat funksiyalari: O‘quv qo‘llanma –T.:TDYUI, 2004.
3. Давлат ва ҳуқуқ назарияси / Масъул муҳаррир М.Ахмедшаева. Дарслик. – Тошкент: ТДЮУ, 2019.
4. N. Seytimbetova. Millatlararo totuvlik – barqarorlik va taraqqiyot omili. O‘TMISHGA NAZAR / VZGLYAD V PROSHLOE / LOOK TO THE PAST №SI-2 (2021) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2021-SI-2>. 7-bet.
5. <https://interkomitet.uz/bosh-sahifa-kir/zbekistonda-hal-lar-d-stligi-kuni-belgilandi/?lang=oz>.

